



Jizzax davlat  
Pedagogika  
universiteti

TARIX FAKULTETI



# TARIX va JAMIYAT

## JOURNAL 2023



**№5**

**HISTORY AND SOCIETY**  
**ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО**  
общественный электронный  
**ЖУРНАЛ**



## TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

---

2023-yil 5-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar  
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o'qitish metodikasi

---

**Bosh muharrir:** Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,  
t.f.n., dotsent.

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.

**Mas'ul kotib:** Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o'qituvchisi

### TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G'oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G'ofurov J.I – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o'qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o'qituvchi

**Dizayner va sahifalovchi:** Axmurodov D.Q

---

## O‘ZBEK XALQI HUNARMANDCHILIGI TARIXIDAN

**N.T. Toshboyeva, JDPU, texnologik ta’lim  
(masofaviy ta’lim) fakulteti V kurs talabasi**

**Annotatsiya:** Muallif ushbu maqolada O‘zbekiston hududida olib borilgan izlanishlar natijasida qo‘lga kiritilgan materiallarga tayanib hudud aholisining qadimgi davrdagi hunarmandchiligi, jumladan, to‘qimachilik, metallsozlik, qurolsozlik, zeb ziynat yasash san’ati va ularning o‘ziga xususiyatlari haqida ma’lumot bergan.

**Kalit so‘zlar:** Metallsozlik, zeb-ziynat, to‘qimachilik, gilam, kigiz, olacha, so‘zana, xurjun, qilich, xanjar, o‘tov, ko‘zgu.

**Аннотация:** В данной статье на основе материалов, полученных в результате исследований, проведенных на территории Узбекистана, автор привел сведения о ремеслах жителей региона в древности, в том числе о тканях, изделиях из металла, оружии и искусство изготовления украшений и их особенности.

**Ключевые слова:** Металлоконструкции, украшения, ткань, ковер, войлок, олача, созана, хурджун, меч, кинжал, трава, зеркало.

**Annotation:** In this article, based on materials obtained as a result of research conducted on the territory of Uzbekistan, the author provided information about the crafts of the inhabitants of the region in antiquity, including fabrics, metal products, weapons and the art of making jewelry and their features.

**Key words:** Metal structures, jewelry, fabric, carpet, felt, olacha, sozana, khurjun, sword, dagger, grass, mirror.

O‘zbekiston hududida joylashgan yodgorliklarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida, ajdodlarimiz hayot tarzi, ularning xo‘jaligi bilan bog‘liq ashyoviy manbalar o‘rganilgan. Yodgorliklarda o‘rganilgan kulollik idishlari, qurol yarog‘, zeb-ziynat va boshqa ro‘zg‘or buyumlari qadimgi aholining hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish borasida yuksak madaniyat sohiblari bo‘lganligidan guvohlik beradi. Mavjud arxeologik, yozma va etnografik manbalar uy-ro‘zg‘or buyumlari orasida to‘qimachilik mahsulotlari –gilam, kigiz, olacha, so‘zana, turli xil kiyim bosh, ot anjomlari, xurjun va h... kabilar yasash ham keng yoyilganligin ko‘rsatadi.

Qadimgi ajdodlarimiz hunarmandchilikning ko‘plab sohalarini mukammal egallaganligi ko‘rinadi. O‘rganilgan ashyolarning ba’zilarida yurtimizga antik davrda kirib kelgan yuechjilar madaniyatiga (qilich, xanjar, marhumlarni yoqish va

h...) o'xshab ketadi<sup>116</sup>. Afsuski, o'rganilgan ko'plab mozorqo'rg'onlarda metall va sopollardan boshqa olovga chidamsiz buyumlar (to'qimachilik, suyak, yog'och buyumlar, kamonlarning yoyi, qovurg'asi va h...) deyarli saqlanib qolmagan. Unga sabab marhumlarning dafn marosimida yoqib yuborilganligidadir<sup>117</sup>.

Shunday bo'lsada, mavjud yozma va etnografik ma'lumotlar asosida qadimgi aholining to'qimachilik mahsulotlari haqida fikr yuritish mumkin. Ustrushonada o'rganilgan yodgorliklar atroflarida yashash, uy qoldig'i izlarining yo'qligi, ularning ham boshqa ko'chmanchi chorvadorlar kabi asosan o'tovlarda yashaganligini ko'rsatadi. Ko'chmanchilar to'qima buyumlari orasida ayniqsa, o'tov, alohida e'tiborga molik. U yasalishi jihatdan yuksak badiiy, estetik did bilan to'qilgan o'ziga xos mo'jizaviy yashash makonidir. Uni istalgan manzilga o'rnatib, har qanday fasl va sharoitda yashash mumkin bo'lgan. O'tovning dastlabki xillari mavsumiy ko'chishlar paytida paydo bo'lgan. Ko'chmanchi chorvachilik turmush tarzida turarjoyini ko'chirib olib yurish eng qulay usul bo'lib, u yuksak aql va tadbir mahsulidir. Turk hoqonining o'tov – chodiri Vizantiya imperatori elchisi Menandrni, chunonchi, “Vlaxern saroyining hashamatlarini ko'rgan kishini hayratga soladi”<sup>118</sup>. O'tovdagi manzara, undagi ramziy tasvirlar, aholining yashash tarzi, ko'chmanchilarni o'rab to'rgan xaqiqiy borliqni aks ettiradi.

Ko'chma sandal, sopol manqaldonlardagi olov, cho'g' atrofida odamlar joylashgan. Qishda o'tov o'rtasida olov yoqilgan va bu olovda taom pishirilgan. O'tovdagi issiqlik sirkulyasiyasi, tutun dudni chiqarib olov yonishiga yordam berishi uchun hamisha qora uy tepasida tuynuk saqlangan<sup>119</sup>. Chorvadorlarning butun kiyim bosh va to'qima ro'zg'or buyumlari chorva mollarining yung va terilaridan tayyorlangan. Qo'y va echkilarning junidan pishiq va chidamli mato qilinib, undan kiyim-bosh qilib kiyilgan. Chiroyli turli xil naqshlar tushirib bezatilgan sifatli olacha, gilam, xurjun va kigizlar yasalgan. Xitoyshunos olim A.Xo'jaev, xitoylik Vang Chjungxan tadqiqotlaridan quyidagilarni keltiradi. “... №6 raqamli xun qabridan uzunligi 2,6 m, kengligi 1,95 m keladigan bir rangli gilam topilgan. Uni to'qishda yashil, sariq, to'q qizil va qora qizil rangli iplar ishlatilgan. Gilamning atrofiga 24-28 mmlilik kichik katakchalar shaklida naqsh solingan. Uning o'rtasga yashil ip bilan 9 ta daraxtning shakli tushirib to'qilgan. Daraxtlar oralig'iga 4 juft bug'u va qush, 5 juft arslon va er haydashda ishlatiladigan ho'kiz tasviri tushirilgan. Ushbu rasmlar atrofiga yashil, sariq, qora, qizil, to'q qizil rangli ip bilan

<sup>116</sup> Хўжаев А. Фаргона тарихига оид маълумотлар. “Фаргона”, 2013. – Б. 191.

<sup>117</sup> Тошбоев Ф.Э. Уструшона халқларининг ҳарбий қуроллари ҳақида дастлабки мулоҳазалар. // Ўзбекистон археологияси. № 7 Тошкент-Самарқанд: 2013. – Б. 67.

<sup>118</sup> Гумилев Л.Н. Қадимги турклар. (Таржима, кириш сўз муаллифлари ва нашрга тайёрловчилар Б. Ўрдабекли ва А. Айритомий) – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 82.

<sup>119</sup> Поляков С.П. Историческая этнография Средней Азии и Казахстана. – М.: МГУ 1980. – С. 128.

to'rtburchak, yumaloq, ingichka burchak va qo'shish belgisi shaklida naqshlar tushirilgan"<sup>120</sup>. Bu topilmani hozirgi paytda ham Ustrushona chorvador aholisi tomonidan to'qiladigan to'shama buyumlar bilan solishtirib ko'radigan bo'lsak, ularda tafovut juda kam seziladi. Bu holat chorvador aholida to'qimachilik san'atining juda qadim ildizlarga ega ekanligidan dalolat beradi.

Chorvadorlarning kiyim boshining juda qulayligi – issiq va sovuqqa mosligi, tog'u- toshda yurish, otda chopish, favqulotda vaziyatlarda ximoyalalanish uchun juda qulay hisoblangan. Bu haqda tarixiy yozma manbalarda ko'p yoritilgan. Shuning uchun qo'shni o'troq voha aholisi jang kiyimlarining aksariyatini ulardan andoza olib yasatgan. Bunga misol qilib quyidagini keltirishimiz mumkin. “Miloddan avvalgi IV asrda yunonlar ta'qibi natijasida saklarning bir guruhi sharqqa – Xitoy chegara atroflarigacha ko'chib kelgan. Ayni paytdagi Chjou hukmdorligining boshqaruvchisi Ulin (miloddan avvalgi 325-298 yillar) ushbu g'uz (hu)lar (dashtdagi ko'plab xalqlarni xitoyliklar shunday atashgan F.T.) kiyimi ot minishga va o'q yoy otishga qulay ekanligini anglab, odamlarining ko'rsatgan qattiq qarshiligiga qaramay, ularni g'uz (hu)lardek kiyinishga da'vat etgan"<sup>121</sup>. O'rta Osiyo va Eron hududlaridagi jangovor kiyimboshlarning ko'pchiligi ko'chmanchilardan o'zlashtirilganligiga ko'plab misollar keltirish mumkin.

Mozorqo'rg'onlarida o'z sifatini yo'qotmagan temirdan yasalgan o'tkir tig'li qurollar ko'plab qayd qilindi Oradan ikki ming yildan ortiq vaqt o'tishiga qaramay, bu jang qurollari o'zining sifati va asl holatini ma'lum miqdorda saqlab qolgan. Bu esa, antik davrda Ustrushonada hunarmandchilikning metallsozlik sohasi ham yuksak darajada taraqqiy etganligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, chorvadorlar harbiy tadbirlar muvaffaqiyatini belgilovchi temir qurollar ishlab chiqarishda mohir usta bo'lishgan. “Saklarda ayniqsa tilladan yasalgan buyumlardan foydalanish birinchi o'rinda turgan"<sup>122</sup>. Vizantiya elchisi Zemarx unga turkutlar sotiladigan temirni taklif qilganlarida hayron bo'lib qoladi va bu uni chalg'itish uchun ataylab qilinayapti, degan shubhaga boradi, “odatda ularda temir topilishi ancha mushkul” degan gap yurardi<sup>123</sup>. Aslida turkiylar metallurgiyani taraqqiy ettirib, o'z qo'shinini qayta qurollantirib, zirxli suvorilardan tanlangan zarbdor qismlar tashkil eta olgan edilar. Ular shoxli yoy, zirh ko'ylak, nayza, qilich, o'tkir suvoriy shamshirlari bilan qurollanishgan. Yozma yodgorliklarda keltirilgan ushbu qisqa xabarlar Ustrushona mozorqo'rg'onlaridagi arxeologik materiallar orqali yana bir bor o'z tasdig'ini topmoqda.

<sup>120</sup> Хўжаев А. Фаргона тарихига оид маълумотлар... – Б. 228.

<sup>121</sup> Хўжаев А. Фаргона тарихига оид маълумотлар... – Б.203.

<sup>122</sup> Хўжаев А. Фаргона тарихига оид маълумотлар... – Б.208.

<sup>123</sup> Гумилев Л.Н. Қадимги турклар...–Б.52.

Tarixiy manbalarda ustrushonaliklarning asosiy gʻururi boʻlgan Mink rustoqi va Marsmand shaharlarida tayyorlanadigan temir qurol-aslahalar haqida maʼlumotlar berilgan. Aytishlaricha, bu qurol-aslahalar bilan “butun Xuroson taʼminlangan va Bagʻdoddan to Iroqqa qadar koʻplab jangchilar qurollanishgan”<sup>124</sup>. Ustrushonaliklar tomonidan tayyorlangan qurol-aslahalarning bunday keng tarqalishi shubhasiz, uning sifati va narxining ommaga mos boʻlishidir. Bu albatta xom-ashyo bilan bogʻliq boʻlgan. Shu oʻrinda aytish mumkinki, oʻlkaning togʻli hududlarida temir, oltin, mis, kumush, kuporos, aqiqning yoʻl-yoʻl turi hamda tuz konlari ishlab turgan.

Yoki Baxmal tumanida oʻrganilgan Bekkeldi mozorqoʻrgʻonlaridagi qabrga ayol kishini old tarafiga, uning yuziga qaratib qoʻyilgan bronza koʻzgu ham diqqatga sazovor. Ushbu koʻzgu doira shaklida, diametri 10,5 x 10,5 sm oʻlchamida boʻlib, sirtiga tomon tekis qavariq shaklida yasalgan. Oyna atrofi valik shaklida sirtidan 0,3 sm oʻlchamida toʻgʻrigi qayrilgan. Ichki qismining chetiga qoʻlda, uchi oʻtkir tigʻ bilan chizib, aniq oʻlchamda boʻlmagan bir-birini ramkasimon tarzda kesib oʻtuvchi chiziqchalar tortish orqali bezak berilgan.

Shunday qilib arxeologik va yozma manbadardagi tahlillar, chorvadorlar amaliy sanʼatining yuqori darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Chorvadorlarda hunarmand, uning ustaxonasi va u yasagan buyumlar nihoyatda qadrlangan. Ming yillar mobaynida temirchi, duradgor, toʻquvchi, kosib va h... ustaxonasi, shuningdek, tegirmon, juvozxona joylari ham muqaddas sanalgan. Bu inshootlar oʻrni muqaddas sanalib toza va ozoda saqlagan, bu joylarga atab tez-tez qurbonliklar qilib turishgan. Bu anʼanalar bugungi kunda ham davom etmoqda. Halqimizning hunarmandchilik bilan bogʻliq bu kabi anʼanalarini oʻrganish maʼnaviy barkamol avlodni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

---

<sup>124</sup> Бетгер Е.К. Извлечения из книги «Пути и страны» Абу-л-Касима ибн Хаукаля... –С.226.